

TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGLAR FAOLIYATINING PSIXOLOGIK MOHIYATI

Abilkasimova Manzura Bekturdiyevna

Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani 3-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ta'lim tizimida pedagoglar faoliyatining psixologik mohiyati, o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan psixologik talablar hamda pedagogik faoliyatning o'quvchilar shaxsini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, pedagogning kasbiy kompetensiyasi va psixologik madaniyatini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: pedagog, pedagogik faoliyat, psixologik mohiyat, ta'lim tizimi, o'qituvchi shaxsi, pedagogik mahorat, muloqot, motivatsiya, psixologik kompetensiya, ta'lim jarayoni.

KIRISH

Ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi eng muhim sohalardan biri hisoblanadi. Ushbu tizimning samaradorligi ko'p jihatdan pedagoglarning kasbiy faoliyatiga bog'liq. Pedagog nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi tarbiyachi, yo'naltiruvchi va psixologik qo'llab-quvvatlovchi shaxs hamdir. Shu sababli pedagogik faoliyatning psixologik mohiyatini o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Pedagogik faoliyatning psixologik mohiyati inson bilan ishlash jarayonida namoyon bo'ladi. O'qituvchi ta'lim berish bilan bir qatorda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga oladi, ularning qiziqishlari, ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa pedagogdan nafaqat chuqur bilim, balki yuksak psixologik tayyorgarlikni ham talab etadi. Pedagog faoliyatining asosiy maqsadi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish bilan birga ularni har tomonlama barkamol inson sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Mazkur jarayonda

o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot muhim o'rin tutadi. Sog'lom psixologik munosabatlar o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi, o'zlashtirish sifatini yaxshilaydi va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Pedagogik faoliyatning psixologik jihatlaridan biri motivatsiya bilan bog'liqdir. O'qituvchi o'quvchilarda bilim olishga bo'lgan qiziqishni shakllantira olishi, ularni maqsad sari ruhlantira bilishi kerak. Motivatsiyasi yuqori bo'lgan o'quvchilar ta'lim jarayonida faolroq ishtirok etadilar va yuqori natijalarga erishadilar.

Pedagog faoliyatida emotsional barqarorlik ham katta ahamiyatga ega. O'qituvchi turli xarakter va temperamentga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ishlaydi. Shu sababli u sabr-toqatli, vazmin va hissiyotlarini boshqara oladigan bo'lishi zarur. Pedagogning ruhiy holati ta'lim jarayonining umumiy muhitiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Psixologik nuqtai nazardan pedagogik faoliyat ijodiy faoliyat hisoblanadi. Har bir dars yangi yondashuv, yangi metod va individual yechimlarni talab qiladi. O'qituvchi o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishi va samarali usullardan foydalanishi lozim.

Muloqot madaniyati pedagog faoliyatining ajralmas qismidir. O'qituvchining nutqi, muomala uslubi, tinglash qobiliyati va o'quvchilarga nisbatan munosabati ta'lim samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Hurmat, ishonch va hamkorlikka asoslangan muloqot o'quvchilarning psixologik qulayligini ta'minlaydi.

Bugungi kunda pedagoglardan psixologik kompetensiyaga ega bo'lish talab etilmoqda. Bu kompetensiya o'quvchilarning individual xususiyatlarini tushunish, nizoli vaziyatlarni hal qilish, psixologik yordam ko'rsatish va sog'lom ta'lim muhitini yaratish imkonini beradi. Shuningdek, pedagoglarning doimiy ravishda o'z ustida ishlashi va kasbiy rivojlanishga intilishi muhim hisoblanadi.

Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchining kasbiga bo'lgan munosabati, mas'uliyati va insonparvarlik fazilatlariga bog'liq. O'quvchilarga mehr bilan yondashadigan, ularning yutuqlarini qo'llab-quvvatlaydigan va qiyinchiliklarini tushunadigan pedagog ta'lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishadi. Pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri motivatsiyadir.

O'qituvchining kasbiy faoliyatida motivatsiya tashqi va ichki omillardan tarkib topadi. Tashqi motivlar turli natijalarga erishish, e'tirof qozonish yoki ma'lum maqsadlarga intilish bilan bog'liq bo'lsa, ichki motivlar pedagogik faoliyatning mazmuni, jarayoni hamda undan olinadigan ma'naviy qoniqish bilan belgilanadi.

Pedagogik faoliyat murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda kuzatish, eslab qolish, muloqot qilish, izlanish, nazorat va baholash kabi turli faoliyat turlari uyg'unlashadi. Ushbu jarayonlar o'qituvchining kasbiy vazifalarini samarali bajarishiga xizmat qiladi. Pedagog olim P.F. Kapterev o'qituvchi shaxsiga xos bo'lgan bir qator muhim sifatlarni ajratib ko'rsatgan. Ularning birinchisi kasbiy bilimlar bo'lib, bunda pedagog ta'lim va tarbiya mazmunini, yosh va pedagogik psixologiya asoslarini, zamonaviy pedagogika yutuqlarini hamda o'z fanini o'qitish metodikasini puxta egallagan bo'lishi lozim.

Ikkinchi guruh sifatlari pedagogning individual xususiyatlarini qamrab oladi. Kuzatuvchanlik, diqqatni boshqara olish, pedagogik tafakkur va tasavvur, o'zini tahlil qila bilish, vaziyatlarda o'zini tuta olish hamda nutqning ta'sirchanligi shular jumlasidandir. O'qituvchining kasbiy mahorati esa ta'lim jarayonini rejalashtirish, o'quvchilar faoliyatini boshqarish, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va ta'lim maqsadlarini aniq belgilash ko'nikmalarida namoyon bo'ladi. Shuningdek, pedagog bolalar jamoasini uyushtirish, ularda qiziqish uyg'otish va amaliy muammolarni tezkor hal etish qobiliyatiga ham ega bo'lishi zarur. Muloqot madaniyati ham pedagog faoliyatining ajralmas qismidir. O'qituvchi o'quvchilar, ota-onalar va jamoatchilik bilan samarali hamkorlik o'rnatish, jamoa ichidagi munosabatlarni muvofiqlashtira bilishi kerak.

Kasbiy faoliyatda gnostik ko'nikmalar ham muhim o'rin tutadi. Bunday ko'nikmalar pedagogga o'quvchilarning psixologik rivojlanish darajasini aniqlash, o'z faoliyatini tahlil qilish, ilg'or tajribalarni o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etishda yordam beradi. Ijodkorlik esa zamonaviy o'qituvchining eng muhim fazilatlaridan biridir. Pedagog yangi g'oyalarni ilgari surishi, tarbiyaviy dasturlar ishlab chiqishi, o'quvchilarning ichki dunyosini tushunishga intilishi va pedagogik ta'sir natijalarini oldindan ko'ra olishi bilan ajralib turadi.

Shunday qilib, pedagog shaxsining kasbiy yo‘nalganligi, bilim va qobiliyatlari, xarakter xususiyatlari hamda ijodiy salohiyati uning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sifatlarning rivojlanganligi o‘qituvchining o‘quvchilar bilan samarali ishlashiga va ta’lim-tarbiya jarayonining yuqori natijalariga erishishiga imkon yaratadi. N.V. Kuzmina o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyat darajasiga ko‘ra uch guruhga ajratadi. Birinchi guruh vakillari kasbiy malakalarni tez egallab, faoliyatida yuqori natijalarga erishadilar. Ikkinchi guruhdagi pedagoglar esa bilim va ko‘nikmalarni asta-sekin o‘zlashtirsalar-da, vaqt o‘tishi bilan yetarli tajriba to‘playdilar. Uchinchi guruh vakillari esa uzoq faoliyat davomida ham pedagogik qobiliyatlarni to‘liq shakllantira olmaydilar.

Zamonaviy pedagog doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi, psixologiya va pedagogika sohasidagi yangiliklarni o‘rganib borishi zarur. Ayniqsa, o‘z psixik holatini boshqarish, murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish va emotsional barqarorlikni saqlash kasbiy faoliyatda katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ta’lim tizimi nafaqat chuqur bilimga ega, balki zamonaviy fikrlaydigan, tashabbuskor va ijtimoiy faol pedagoglarni talab etmoqda. Shu sababli o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ularning shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va faolligini rag‘batlantirishi, ularga o‘z imkoniyatlarini namoyon etish uchun qulay sharoit yaratishi kerak. Bilimdonlik, mas’uliyat, ijodkorlik va pedagogik mahorat kabi fazilatlar esa ta’lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini ta’minlaydigan asosiy omillar hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimida pedagoglar faoliyatining psixologik mohiyati o‘quvchilar shaxsini rivojlantirish, ularning bilim olish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va sog‘lom psixologik muhit yaratish bilan chambarchas bog‘liqdir. Pedagogning psixologik tayyorgarligi, muloqot madaniyati va kasbiy mahorati ta’lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Nishonova Z.T. Pedagogik va yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
2. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent, 2019.
3. Shoumarov G‘.B. Psixologik xizmat asoslari. – Toshkent, 2018.
4. Leontev A.N. Faoliyat, ong va shaxs. – Moskva.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.